

**NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

XUDOYBERGANOVA MAQSUDA JUMANIYAZOVNA

**TURLI YOSHDAGI ZAIF KO'RUVCHILARDA EMOTSIONAL
INTELLEKT SHAKLLANGANLIGINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 - Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent– 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
psychological sciences**

Xudoyberganova Maqsuda Jumaniyazovna

Turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarda emotsional intellekt shakllanganligining
psixologik xususiyatlari3

Худойберганова Максуда Джуманиязовна

Психологические особенности формирования эмоционального интеллекта
слабовидящих разного возраста23

Khudoyberganova Maksuda Dzhumaniyazovna

Psychological features of the formation of emotional intelligence in weak people of
different ages.....45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

XUDOYBERGANOVA MAQSUDA JUMANIYAZOVNA

**TURLI YOSHDAGI ZAIF KO'RUVCHILARDA EMOTSIONAL
INTELLEKT SHAKLLANGANLIGINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 - Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/P1054 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Baykunosova Gulmira Yuldiyevna**
psixologiya fanlari doktori, professor.

Rasmiy opponentlar: **Kamilova Nodira G'ayratovna**
psixologiya fanlari doktori, professor

Samarova Shohista Rabidjanovna,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «__» __ kuni soat__ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel: (+99871) 276-80-86; faks: (+99871) 276-76-51, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston milliy Pedagogika universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel: (+99871) 276-80-86; faks: (+99871) 276-76-51)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «__» __ kuni tarqatildi.
(2025 yil «__» __ dagi __ raqamli reyestr bayonnomasi)

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, psixologiya fanlari doktori,
professor

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotib, psixologiya fanlari doktori,
professor

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda alohida ehtiyojli shaxslarga jumladan, zaif ko'ruvchilarga psixologik yordam ko'rsatish dolzarbligi ortib bormoqda. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, «dunyo miqyosida 2,2 milliard odam yaqin yoki uzoq masofani ko'rish qobiliyatiga ega. Ularning deyarli yarmi - 1 milliardida ko'rish buzilishining oldini olish mumkin edi. 1 milliard odam orasida masofadan ko'rishning buzilishi yoki ko'rlikka olib keladigan asosiy kasalliklar - katarakta (94 million), refraktiv nuqson (88,4 million), yoshga bog'liq nasliy (8 million), glaukoma (7,7 million), diabetik retinopatiya (3,9 million) kuzatiladi. Mintaqaviy tafovutlar nuqtai nazaridan, past va o'rta daromadli hududlarda masofadan ko'rish buzilishining tarqalishi daromadli hududlarga qaraganda 4 baravar yuqori ekanligi qayd etilgan. Osiyo-Tinch okean mintaqasi hududlarida mazkur muammoning kuzatilishi 10% dan past ekanligi aniqlangan, bu ko'rsatkichning o'sishi yiliga 3-6% ni tashkil qiladi»¹. Ko'rish sezgisining buzilishi tufayli shaxs hissiy, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishida muammolar yuzaga kelib, maktab yoshidagi bolalarning ta'lim jarayonidagi yutuqlarining past darajada namoyon bo'lishiga, kattalarda esa hayot sifati va mehnat faoliyati bilan to'liq ta'minlanishiga jiddiy ta'sir qiladi. Bu borada, ijtimoiy izolyatsiya, harakatlanish qiyinligi, yiq'ilish va shikast olish xavfining oshishiga duchor bo'lishi bilan turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarning psixologik xususiyatlari muammosini ilmiy tadqiq etish zaruratini yuzaga keladi.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-amaliy markazlarida turli yoshdagi zaif ko'ruvchilar emotsional intellekti ya'ni o'zining va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish hamda o'zining va boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyati eng muhim psixologik hodisaga aylanmoqda va bu masala dolzarb ahamiyatli muammolardan bo'lib qolmoqda. Shaxsda emotsional intellekt masalasi uning muvaffaqiyat omili sifatida namoyon bo'lishi bilan birga, psixologiya sohasida turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarning emotsional intellekt shakllanganligini o'rganishga yo'naltirilgan psixologik tadqiqotlarni olib borish zaruratini taqozo etadi.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish, ushbu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilanib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «...alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning umumiy o'rta ta'lim olishda va ularni bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalashda, ularning jamiyatga moslashuvi va integratsiyalashuvida ko'maklashish tartibi»² ustuvor vazifa sifatida belgilanib, amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muhim asos bo'la oladi. Qolaversa, bugungi kunda yoshlar orasida gadgetlarga qaramlik holatlarining ortib borishi kuzatilmogda, bu esa o'z navbatida ularda zaif ko'rish kabi nuqsonning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda Mazkur muhim vazifalarni hal etish yo'lida ushbu

¹ <https://www.who.int> Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti web sahifasi.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida» 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori

yo‘nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim qadamlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

2023-yil 1-maydagi «O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi», 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son «Ta‘lim to‘g‘risida», 2020-yil 15-oktyabrdagi O‘RQ-641-son «Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida» Qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 3-fevraldagi PF-4190-son «O‘zbekiston Respublikasida aholi ruhiy salomatligini saqlash xizmatini rivojlantirish bo‘yicha 2019-2025-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi to‘g‘risida», 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmonlar, 2023-yil 2-fevraldagi PQ-74-son «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son «Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida» Qarori, ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarni «Nurli maskan» maxsus maktab-internatlarida o‘qitish va tarbiyalash nazarda tutilgan normativ hujjatlar hamda boshqa me‘yoriy hujjatlar doirasida belgilab qo‘yilgan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston psixolog va pedagog olimlaridan D.U.Abdullayeva, O.U.Avlayev, F.A.Akramova, Sh.Amirsaidova, M.L.Aripova, M.Y.Ayupova, Sh.R.Baratov, M.G.Davletshin, U.Y.Fayziyeva, M.F.Hakimova, M.U.Hamidova, Sh.T.Haliqova, N.Z.Ismoilova, S.N.Jo‘rayeva, G.D.Ko‘ldasheva, K.Q.Mamedov, L.R.Mo‘minova, S.R.Mirzayeva, D.A.Nurkeldiyeva, L.V.Nazirova, Z.T.Nishonova, M.P.Po‘latova, V.S.Raxmonova, B.X.Raximov, Sh.R.Samarova, E.G.G‘oziyev, Sh.S.Shodmonova, G‘.B.Shoumarov, D.A.Choriyeva, X.A.Kasimova, J.R.Shukurov va boshqalar tomonidan shaxsning rivojlanish xususiyatlari, shaxsga psixologik yordam ko‘rsatish masalalari, emotsional intellekt shakllanganligi, nogironlik muammolariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Lekin turli yoshdagi zaif ko‘ruvchilarning emotsional intellekt shakllanganligining psixologik xususiyatlari bo‘yicha mahsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan nogironlik holatida shaxsiy rivojlanish masalalarini bo‘yicha A.N.Leontev, A.I.Mesheryakov, I.A.Sokolyanskiy, A.V.Suvorov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar, A.K.Kravsova hissiy aql va jamoadagi yetakchilik masalalarini ko‘rib chiqqan. T.I.Solodkova o‘qituvchilar ishida emotsional intellektning resurs imkoniyatlarini tahlil etgan, K.S.Kuznetsova, I.N. Meshcheryakova va boshqalar turli yoshdagi

shaxslarda emotsional intellektning dolzarb muammolarini o'rgandilar. Рус олимпи A.N.Leontev asarlarida tafakkurni hissiy faoliyatdan ajralgan holda ko'rib chiqish mumkin emasligini va hissiyotlarning eng muhim xususiyati ularning ichida ekanligi ta'kidlangan. A.G.Litvak va A.F.Samoylovlar ko'rishida nuqsoni bo'lgan shaxslar tafakkuri rivojlanishining uchta konsepsiyasini tushuntirganlar. Salomatlik psixologiyasining zamonaviy qarashlari bo'yicha B.S.Bratus, F.E.Vasilyuk, D.A.Leontev A.Y.Rozovskiy, E.T.Sokolova, V.N.Sapkin va boshqalar ish olib borganlar.

Xorij olimlaridan E.Torndayk, Ch.Spirmen, D.Veksler, P.Vernoy, J.Gilfrod, Piter Salovey, Jon Mayer X.Gardnerlar shaxsda emotsional intellekt shakllanish masalalarini, A.Adler, N.Bradburn, E.Diener, D.Kahneman, N.Schwarz, C.D.Ryff, M.E.Seligman va boshqalar zaif ko'ruvchilarni psixologik qo'llab quvvatlashga oid ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Yoshlarning ma'naviy qiyofasini yuksaltirishning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy muammolarini o'rganish» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan (2017-2021 y.y.).

Tadqiqotning maqsadi turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarda emotsional intellekt shakllanganligining psixologik xususiyatlarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

D.V.Lyusinning «Emotsional intellektni aniqlash» EmIn so'rovnomasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish va modifikatsiya qilish;

turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarda emotsional intellektni belgilovchi ijtimoiy - psixologik xususiyatlarning shakllanganligi hamda emotsional-hissiy xususiyatlarning barqarorligi ta'sirini empirik tadqiq etish;

turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarning emotsional intellektini rivojlantirish uchun kognitiv, emotsional va xulq-atvor sohalariga kompleks ta'sir etish samarali ekanligini ilmiy jihatdan o'rganish;

emotsional intellektni rivojlantirishga ta'sir qiladigan rivojlantiruvchi dasturni qo'llash orqali ularda hissiy-motivatsion sohani barqarorlashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarda emotsional intellektning shakllanganligi jarayoni tanlangan bo'lib, tadqiqotda Buxoro shahar 29- «Nurli maskan» maktab-internatidan 56 nafar, Xiva shahar 121- «Nurli maskan» maktab-internatidan 108 nafar, O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati Toshkent viloyati bo'limi va Chilonzor tumani bo'limidan 50 nafar turli yoshdagi zaif ko'ruvchi shaxslar ishtirok etdi. Tadqiqotga 214 nafar sog'lom shaxslar va 214 nafar turli yoshdagi zaif ko'ruvchilar jalb etilgan bo'lib, tadqiqotga jami 428 nafar respondentlar jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarda emotsional intellekt shakllanganligining psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat metodi, shuningdek D.V.Lyusinning «Emotsional intellektni aniqlash» EmIn so'rovnomasi, N.Xollning «Emotsional intellektni baholash» testi, A.G.Samoxvalova, E.V.Tixomirova,

N.S.Shipova, O.N.Vishnevskayalarning «Shaxsning psixologik farovonligi shkalasi» metodikasi, E.Dienerning «Hayotdan qoniqish o‘lchovi» (SWLS) metodikasi, Dembo-Rubinshteynning «O‘z-o‘zini baholash» metodikasidan foydalanildi. Olingan empirik natijalarning ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan Spirmen mezoni, Mann-Uitni mezoni va Vilkokson mezonini qo‘llash orqali tasdiqlandi.\

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turli yoshdagi shaxslarda emotsional intellektning shakllanganlik darajasini tashxis qilish uchun sog‘lom va zaif ko‘ruvchi ilk o‘spirin, yoshlik, ilk yetuklik davridagi shaxslarning natijalari psixometrik mezonlariga, konstruktiv validlikni ta‘minlash qoidalariga muvofiq o‘zbek milliy muhitiga mos kelganligi tufayli, D.V.Lyusinning emotsional intellektni aniqlash EmIn so‘rovnomasini modifikasion varianti taklif etilgan;

shaxsiy nazorat usullariga ko‘ra turli yoshdagi zaif ko‘ruvchilarda «his-tuyg‘ularini boshqarish», «o‘z-o‘zini motivlashtirish», «empatiyani yuqori darajasi», «me‘yoriy namunaga nisbatan ifoda», «emotsional bilimdonlik», «o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish» isbotlash orqali namoyon bo‘lish dinamikasi va yosh farqlarini aniqlangan;

shaxsiy etuklik turlariga ko‘ra turli yoshdagi zaif ko‘ruvchilarda «shaxsiy farovonlik», «o‘z-o‘ziga baho», «hayotdan qoniqqanlik darajasi» ko‘rsatkichlari asosida emotsional intellektni rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar aniqlangan;

zaif ko‘ruvchilarda emotsional intellektning rivojlanish modeli sensor adaptatsiya, o‘z-o‘zini anglash, empatiya, emotsiyalarni boshqarish, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish muhimligiga asoslanib, «asosiy», «individual», «o‘zaro munosabat», «regulyativ», «ijtimoiy» darajadagi komponentlarni kiritish orqali takomillashtirilgan yangilik aniqlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turli yoshdagi zaif ko‘ruvchilarga psixologik yordam ko‘rsatish, turli yoshdagi zaif ko‘ruvchilarning emotsional intellektini o‘rganishga doir D.V.Lyusinning «Emotsional intellektni aniqlash» EmIn so‘rovnomasini o‘zbek madaniy muhitiga adaptatsiyasi va modifikatsiyasi ishlab chiqilgan va amaliyotda qo‘llanilgan;

turli yoshdagi zaif ko‘ruvchilarning emotsional intellektini aniqlash, hayotdan qoniqish darajasini belgilash, psixologik farovonligi diagnostika qilingan va ko‘rsatkichlari aniqlanib, turli yoshdagi zaif ko‘ruvchilarda emotsional intellektini rivojlantirish psixodiagnostikasiga doir uslubiy qo‘llanma tayyorlangan va nashr qilingan (Xorazm: Khwarezm publication, 2024. UO‘K 159.9(075.8) KBK 88ya73);

emotsional intellektini rivojlantirish maqsadida turli yoshdagi zaif ko‘ruvchilar uchun rivojlantiruvchi dastur ishlab chiqilgan va uning modeli amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot respondentlarining yetarlicha reprezentativligi; olingan empirik miqdoriy ko‘rsatkichlarning matematik statistikasining ishonchli usullari yordamida tahlil qilingani; tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan asoslangani, xalqaro miqyosida e‘tirof etilgan metodikalar vositasida o‘rganilgani, empirik izlanishlar nazariy asoslab berilgani va olingan natijalar aniq matematik – statistik metodlar va ma‘lumotlarni qayta ishlash dasturi yordamida korrelyatsion qayta ishlangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning bir vaqtda turli

yo'nalishlarda amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan ajralib turadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, psixokorreksiya, art-terapiya usullari asosida turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarda emotsional intellektini rivojlantirish omillarini korrektsiyalashga yo'naltirilgan nazariy yondashuvlar tizimlashtirildi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarga psixologik yordam ko'rsatish orqali emotsional intellektini rivojlantirishning psixologik jihatlarini chuqur tahlil qilish va mexanizmlarining mazmun mohiyati ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, qo'lga kiritilgan natijalar oliy ta'lim muassasalarida «Maxsus psixologiya. Psixologik maslahat», «Psixodiagnostika», «Ontogenez psixologiyasi. Pedagogik psixologiya» fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarda emotsional intellekt shakllanganligining psixologik xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari asosida:

turli yoshdagi shaxslarda emotsional intellektning shakllanganlik darajasini tashxis qilish uchun sog'lom va zaif ko'ruvchi ilk o'spirin, yoshlik, ilk yetuklik davridagi shaxslarning natijalari psixometrik mezonlariga hamda konstruktiv validlikni ta'minlash qoidalariga muvofiq o'zbek milliy muhitiga mos kelganligi tufayli, D.V.Lyusinning EmIn emotsional intellekt so'rovnomasini modifikasion varianti taklif etilgan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-№ 299-son buyrug'iga asosan «Psixodiagnostika» moduliga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yili 7-dekabrda PM-№ 299-a-son ma'lumotnomasi). Natijada D.V.Lyusinning «Emotsional intellektni aniqlash» Emln so'rovnomasi O'zbekiston sharoitiga moslashtirildi va modifikatsiya qilingan variantidan foydalanish imkoniyati yaratilgan;

shaxsiy nazorat usullariga ko'ra turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarda «his-tuyg'ularini boshqarish», «o'z-o'zini motivlashtirish», «empatiyani yuqori darajasi», «me'yoriy namunaga nisbatan ifoda», «hissiy ong darajasi», «o'z his-tuyg'ularini boshqarish» isbotlash orqali namoyon bo'lish dinamikasi va yosh farqlari aniqlanganligiga oid ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-№ 299 sonli buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yili 7-dekabrda PM-№ 299-a-son ma'lumotnomasi). Natijada turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarning emotsional intellekti shakllanganligi yosh bo'yicha farqlari aniqlangan;

shaxsiy yetuklik turlariga ko'ra turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarda «shaxsiy farovonlik», «o'z-o'ziga baho», «hayotdan qoniqqanlik darajasi» ko'rsatkichlari asosida emotsional intellektni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillari aniqlanganligiga oid xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda 299-son buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan

(Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-№ 299-a-son ma'lumotnomasi). Natijada turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarda «shaxsiy farovonlik», «o'z-o'ziga baho», «hayotdan qoniqqanlik darajasi» ko'rsatkichlari asosida emotsional intellektni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlangan;

zaif ko'ruvchilarda emotsional intellektning rivojlanish modeli sensor adaptatsiya, o'z-o'zini anglash, empatiya, emosiyalarni boshqarish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish muhimligiga asoslanib, “asosiy”, “individual”, “o'zaro munosabat”, “regulyativ”, “ijtimoiy” darajadagi komponentlarni kiritish orqali takomillashtirilganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda 299-son buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-№ 299-a-son ma'lumotnomasi). Natijada zaif ko'ruvchilarda emotsional intellektning rivojlantirishga qaratilgan «Qalb nuri» psixologik trening dasturi samaradorligi aniqlangan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta shundan 3 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza shaklida taqdim qilinib, aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqotning asosiy natijalari bo'yicha jami 4 ta ilmiy ish chop qilingan, jumladan 3 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan mahalliy jurnallarda, shu jumladan, 1 tasi xalqaro jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, 9 paragraf, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 138 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekt shakllantirilgan, ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi yoritilgan, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarda emotsional intellekt muammosining nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida psixologik manbalarda zaif ko'ruvchilar, nogironlik masalalarining o'rganilishi, psixologiya sohasida emotsional intellektni o'rganishning asosiy nazariy yondashuvlari, zaif ko'ruvchilarga ko'rsatiladigan psixologik yordam yo'nalishlari nazariy tahlil qilingan.

Shaxsning, alohida ijtimoiy guruhlarning va umuman jamiyatda emotsional intellektni o'rganish zarurligini anglash so'nggi o'n yilliklarda ushbu ilmiy yo'nalishning intensiv rivojlanishini rag'batlantirdi. Zamonaviy psixologiyada turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarning ijtimoiylashuvida, mehnat faoliyatida emotsional intellekt fenomenining o'ziga xos xususiyatlari, nazariy asoslari hamda psixologik jihatlari borasidagi izlanishlar tahlili bayon etilgan. O'zbekistonda D.U.Abdullayeva, O.U.Avlayev, F.A.Akramova, Sh.Amirsaidova, M.L.Arippova, M.Y.Ayupova,

U.Y.Fayziyeva, M.F.Hakimova, M.U.Hamidova, Sh.T.Haliqova, N.Z.Ismoilova, S.N.Jo'rayeva, G.D.Ko'ldasheva, K.Q.Mamedov, L.R.Mo'minova, S.R.Mirzayeva, D.A.Nurkeldiyeva, L.V.Nazirova, Z.T.Nishonova, M.P.Po'latova, V.S.Raxmonova, B.X.Raximov, Sh.R.Samarova, R.I.Sunnatova, G.O.Tulyaganova, E.G'.G'oziyev, D.A.Choriyeva, X.A.Kasimova, J.R.Shukurov, B.N.Turakulov va boshqalarning tadqiqotlarida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar shaxsining rivojlanish xususiyatlari, shaxsga psixologik yordam ko'rsatish masalalari, emotsional intellekt shakllanganligi, nogironlik muammolari hamda xodimlarining emotsional sohasi, emotsional intellekt va uning turli psixologik omillar bilan bog'liqligiga oid psixologik muammolar o'rganilganligi sharhlangan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari olimlaridan B.G.Anan'ev, I.N.Andreyeva, Ye.P.II'in, I.A.Berdnikova, V.V.Boyko, S.P.Derevyanko, Y.V.Yeroxina, A.E.Kargina, A.V.Karpov, O.V.Kotomina, D.V.Lyusin, M.A.Manoylova, T.A.Pankova, Y.M.Pavlova, V.O.Pirojkova, Y.A.Sergiyenko, Y.S.Sinelnikova, Y.A.Chirkina va boshqalarning shaxs, intellekt, emotsional-irodaviy soha, emotsional intellekt va uning shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'lishi, o'quv faoliyati samaradorligiga ta'siri muammolariga oid ilmiy izlanishlari tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning «**Turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarda emotsional intellekt shakllanganligining psixologik xususiyatlarini empirik o'rganish natijalari**» deb nomlangan ikkinchi bobida psixologik tadqiqotlarning metodologik asoslari, turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarda emotsional intellekt shakllanganligining psixologik xususiyatlarini tadqiq qilish psixodiagnostikasi, D.V.Lyusinning "Emotsional intellektni aniqlash" EmIn so'rovnomasi adaptatsiya va modifikatsiyasi (O'zbekiston sharoiti uchun) natijalari keltirilgan, metod va metodikalar tavsifi keltirilgan.

Tadqiqotning ilmiy metodologik asosini B.G.Ananyev, B.F.Lomov, V.N.Myasichevning tizimli yondashuv nazariyasi, S.L.Rubinshteyn, A.V.Brushlinskiy, K.A.Abulxanova, E.A.Sergienkoning subyekt-faollik yondashuvining fundamental qoidalari, A.Maslouning "ehtiyotlar ierarxiyasi", shuningdek, L.S.Vigotskiyning rivojlanishning madaniy-tarixiy nazariyasi, K.Ryff, E.Diener, D.A.Leontiev, M.Seligman, M.Csikszentmihalyning shaxsning psixologik farovonligini o'rganish sohasidagi ijobiy psixologiya g'oyalari tashkil qiladi.

Tadqiqotda kuzatish, suhbat metodlaridan olingan natijalar asosida zaif ko'ruvchilarning yoshi, bo'yicha tahlillar keltirilgan. O'zbek psixologiyasida emotsional intellektni o'lchashning moslashtirilgan va standartlashtirilgan usullari hali mavjud emasligi sababli biz D. V. Lyusinning «Emotsional intellektni aniqlash» EmIn so'rovnomasini o'zbek sharoitiga moslashtirish bo'yicha ish olib bordik. Moslashuv metodika muallif D.V.Lyusinning ruxsati bilan amalga oshirildi. Jahon psixodiagnostikasi tajribalarida shaxs muammosini o'rganishga mo'ljallangan vositalarni uch xil tarzda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Birinchisi, yangi psixodiagnostik vositalarni shakllantirish; ikkinchisi, boshqa madaniy muhitda mavjud metodikalarni mahalliy muhitga moslashtirish; uchinchisi mavjud metodikalar asosida ularning modifikatsiyalashtirish orqali ta'minlanadi. Biz tadqiqotimizda ikkinchi va uchinchi usuldan foydalandik.

1-jadval**D.V.Lyusinning «Emotsional intellektni aniqlash» EmIn so‘rovnomasi natijalari, (15-35-yoshli sog‘lom respondentlar normalari, n = 214)**

Shkalalar	Past daraja	O‘rta daraja	Yuqori daraja
Boshqa odamlarning his -tuyg‘ularini tushunish	11-18	19-24	25-34
Boshqalarning his-tuyg‘ularini boshqarish	6-14	15-19	20-26
O‘z his-tuyg‘ularini tushunish	6-13	14-19	20-30
O‘z his-tuyg‘ularini boshqarish	1-11	12-14	15-20
Ekspressiyani boshqarish	5-10	11-13	14-19
Shaxslararo emotsional intellekt	25-34	35-44	45-57
Interpersonal emotsional intellekt	22-34	35-44	45-66
Tuyg‘ularni tushunish	22-32	33-42	43-64
Tuyg‘ularni boshqarish	24-36	37-46	47-61

Metodikani moslashtirish - bu yangi sharoitlarda mavjud metodikadan foydalanishning yetarliligini ta’minlaydigan jarayondir. O‘lchov ishonchligi har bir shkala va subshkala uchun Cronbach α koeffitsientini alohida hisoblash yo‘li bilan aniqlandi.

Tadqiqot maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, Dmitriy Vladimirovich Lyusinning “Emotsional intellektni aniqlash” EmIn so‘rovnomasini adaptatsiya va modifikatsiyani amalga oshirilganligi 1-jadvalda berilgan. 1-jadvalda sog‘lom respondentlar guruhining moslashish natijalari keltirilgan bo‘lib, har bir shkala va subshkalarining o‘rtacha qiymati, eng past va eng baland ko‘rsatkichlar stahdart og‘ish yig‘indisi natijalari keltirilgan.

2-jadval**D.V.Lyusinning «Emotsional intellektni aniqlash» EmIn so‘rovnomasi natijalari, (15-35 yoshli zaif ko‘ruvchi respondentlar normalari, n = 214)**

Shkalalar	O‘rtacha qiymat	Qo‘llash doirasi		Pastki kvartil	Yuqori	Stah-dart og‘ish
		past	baland			
Boshqa odamlarning his -tuyg‘ularini tushunish	21,521	7	31	19	25	4,895
Boshqalarning his -tuyg‘ularini boshqarish	16,916	8	40	15	19	3,511
O‘z his-tuyg‘ularini tushunish	15,656	5	24	13	18	3,559
O‘z his-tuyg‘ularini boshqarish	12,507	5	19	11	14	2,736
Ekspressiyani boshqarish	10,912	4	18	9	13	2,768
Shaxslararo emotsional intellekt	38,437	20	63	34	42	6,923
Interpersonal emotsional intellekt	39,074	27	57	34	43	6,745
Tuyg‘ularni tushunish	37,177	21	53	33	41	6,444
Tuyg‘ularni boshqarish	40,335	25	65	36	44	6,563

Tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib, sog‘lom shaxslar guruhi uchun normativlari aniqlandi.

Psixologik matnning ishonchlilik darajasi test jarayonida olingan natijalarning to‘g‘riligini aks ettiradi. Agar barcha topshiriqlar izchil va bir yo‘nalishda harakat qilsa, test ishonchli hisoblanadi. Ishonchlilikni baholashda rus namunasi bo‘yicha olingan mualliflarning natijalaridan ustun bo‘lgan natijalar olindi. Tadqiqotimizning maqsad va vazifalariga ko‘ra, D.V.Lyusinning «Emotsional intellektni aniqlash» Emln so‘rovnomasi zaif ko‘ruvchilar guruhida alohida o‘rganildi, tadqiqot guruhiy va individual tartibda amalga oshirildi. Quyidagi 2-jadvalda D.V.Lyusinning «Emotsional intellektni aniqlash» Emln so‘rovnomasining har bir shkala va subshkalaga respondentlarning o‘rtacha qiymat, eng past va eng baland ball pastki kvartil va yuqori kvartil stahdart og‘ish bo‘yicha ko‘rsatkichlar keltirilgan.

Tadqiqotimizning vazifalaridan kelib chiqib, D.V.Lyusinning «Emotsional intellektni aniqlash» Emln so‘rovnomasi bo‘yicha olingan natijalar asosida zaif ko‘ruvchilar guruhiga har bir shkala va subshkala uchun ishlab chiqilgan normativlar keltirib o‘tildi, 3 - jadvalga qarang.

3-jadval

D.V.Lyusinning «Emotsional intellektni aniqlash» EmIn so‘rovnomasi natijalari, (15-35 yoshli zaif ko‘ruvchi respondentlar normalari, n = 214)

Shkalalar	Past daraja	O‘rta daraja	Yuqori daraja
Boshqa odamlarning his -tuyg‘ularini tushunish	7 - 19	20 - 25	26 - 31
Boshqalarning his -tuyg‘ularini boshqarish	8 - 15	16 - 19	20 - 40
O‘z his-tuyg‘ularini tushunish	5 - 13	14 - 18	19 - 24
O‘z his-tuyg‘ularini boshqarish	5 - 11	12 - 14	15 - 19
Ekspressiyani boshqarish	4 - 9	10 - 13	14 - 18
Shaxslararo emotsional intellekt	20 - 34	35 - 42	43 - 63
Interpersonal emotsional intellekt	27 - 34	35 - 43	44 - 57
Tuyg‘ularni tushunish	21 - 33	34 - 41	42 - 53
Tuyg‘ularni boshqarish	25 - 36	37 - 44	45 - 65

D.V. Lyusinning «Emotsional intellektni aniqlash» EmIn so‘rovnomasini moslashtirish va modifikatsiyasi yuzasidan amalga oshirilgan natijalar va empirik ko‘rsatkichlar tahlilida psixometrik mezonlarini yetarlicha ta‘minlanganligi va so‘rovnomani konstruktiv validligini ta‘minlash qoidalariga muvofiq kelganligi bois o‘zbek madaniy muhitida emotsional intellektni aniqlashda qo‘llash uchun tavsiya qilinadi. Tadqiqot ishimizda zaif ko‘ruvchilarni yosh xususiyatlariga ko‘ra ajratishda E.G.G‘oziyevning «Ontogenez psixologiyasi» kitobida keltirilgan (ilk o‘spirinlik, yoshlik va ilk yetuklik davrining psixologik xususiyatlari davrlarni) asos qilib oldik. Tadqiqotda Lyusinning «Emotsional intellektni aniqlash» EmIn so‘rovnomasi orqali zaif ko‘ruvchilarda emotsional intellekt shakllanganligining psixologik xususiyatlari tahlil qilindi.

4-jadval

D.V.Lyusinning «Emotsional intellektni aniqlash» EmIn so‘rovnoma natijalari, zaif ko‘ruvchilar yosh davrlar kesimida tafovutlari asosida, N=214


Ko‘rsatkichlar	Yosh davrlar kesimida	N	O‘rtacha rang	H	p
Boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini tushunish	Ilk o‘spirinlik	66	96,39	5,574	,062
	Yoshlik	70	105,43		
	Ilk yetuklik	78	120,28		
	Jami	214			
Boshqalarning his-tuyg‘ularini boshqarish	Ilk o‘spirinlik	66	109,08	2,514	,284
	Yoshlik	70	115,94		
	Ilk yetuklik	78	99,94		
	Jami	214			
O‘z his-tuyg‘ularini tushunish	Ilk o‘spirinlik	66	108,51	,162	,922
	Yoshlik	70	109,86		
	Ilk yetuklik	78	105,88		
	Jami	214			
O‘z his-tuygularini boshqarish	Ilk o‘spirinlik	66	95,98	5,253	,072
	Yoshlik	70	107,03		
	Ilk yetuklik	78	119,20		
	Jami	214			
Ekspressiyani boshqarish	Ilk o‘spirinlik	66	116,82	5,897	,052
	Yoshlik	70	114,61		
	Ilk yetuklik	78	94,49		
	Jami	214			
Shaxslararo emotsional intellekt	Ilk o‘spirinlik	66	93,47	9,227	,010**
	Yoshlik	70	103,94		
	Ilk yetuklik	78	124,12		
	Jami	214			
Interpersonal emotsional intellekt	Ilk o‘spirinlik	66	101,03	1,365	,505
	Yoshlik	70	109,14		
	Ilk yetuklik	78	112,96		
	Jami	214			
Tuyg‘ularni tushunish	Ilk o‘spirinlik	66	92,13	12,737	,002**
	Yoshlik	70	101,61		
	Ilk yetuklik	78	127,37		
	Jami	214			
Tuyg‘ularni boshqarish	Ilk o‘spirinlik	66	103,48	,805	,669
	Yoshlik	70	112,94		
	Ilk yetuklik	78	107,45		
	Jami	214			

Izoh: ** - $p \leq 0,01$;

Ushbu so‘rovnoma shkalalaridagi zaif ko‘ruvchilarning yosh davrlarida ishonchli tafovutlar aniqlandi. Shaxslararo emotsional intellekt shkalasi bo‘yicha zaif ko‘ruvchilarning natijalari yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi ($H=9,227$; $p \leq 0,01$). Bundan ma’lum bo‘ldiki ilk yetuklik davridagi zaif ko‘ruvchilarda muloqotchanligi yaxshi rivojlangan bo‘lib, o‘zga shaxslarning ya’ni o‘zi kabi zaif ko‘ruvchilarning his-

tuyg'ulari, niyatlari va kayfiyatini farqlash uquviga egadirlar. Zaif ko'ruvchilarning bunday emotsional intellektga egaligi sabab, ular bilan bog'liq aloqalarni hal etish ko'p sohalarda katta ustunliklar beradi. Shu boisdan, bu yoshdagi zaif ko'ruvchilarning bir qator o'rtoqlari, yoru-do'stlari juda ko'p bo'ladi, shuningdek ularni yaxshi tushuna biladilar. Tuyg'ularni tushunish shkalasi bo'yicha ham ilk yetuklik davridagi zaif ko'ruvchilarning natijalari yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi. Bundan ma'lum bo'ladiki ilk yetuklik davridagi zaif ko'ruvchilarda insonlarning his-tuyg'ularini tushunish qobiliyati yuqori darajada rivojlangan bo'lib, bu ulardagi hayotiy tajribasining kattaligi, ijtimoiy muhitda, jamiyatda ma'lum kasb egallaganligi, do'stlari va hamkasblari orasida o'z mavqeiga ega ekanligi bilan bog'lab tushunishimizga imkon beradi.

Quyida 15-35 yoshli zaif ko'ruvchilar va sog'lom shaxslarning N. Xollning «Emotsional intellektni baholash» testi bo'yicha tafovutlarni ko'rib chiqamiz.



1-rasm. Zaif ko'ruvchilar va sog'lom shaxslarda N. Xollning «Emotsional intellektni baholash» testi tafovutlari, (15-35-yoshlilar misolida)

N.Xollning «Emotsional intellektni baholash» testining o'z- o'zini motivlashtirish shkalasi bo'yicha ishonchli darajadagi farqlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Bundan ma'lum bo'ladiki, zaif ko'ruvchilarda sog'lom shaxslarga nisbatan o'z-ozini motivlashtirish ustun ekan ($U=-2,649$; $p\leq 0,01$). Bunga ko'ra ular to'siqlarga qayta-qayta duch kelishganida yana oyoqqa tura oladilar, hayot muammolariga duch kelganlarida ijodiy yondashadilar. Ular xotirjamlik, hushyorlik va diqqatni jamlash holatiga osongina kira olishadi. Harakatlanish kerak bo'lganda salbiy his-tuyg'ularni osongina chetga surib olg'a qadam tashlaydilar.

Odatda bunday emotsional intellektli zaif ko'ruvchilar, hayot taqozosiga ko'ra harakat qilishi lozim bo'lgan paytlarda kerak bo'lsa bosiq bo'lib, fikrlarini bir yerga to'play oladilar, kerak bo'lganda, o'zlarini juda shodon, ko'tarinki ruhda, hazilkash qilib ko'rsata oladilar, ular qayta-qayta o'zlarini biror qiyinchiliklarni yengishga jalb eta oladilar. Ular hayotidagi muammolarga ijodiy yondashishga harakat qiladilar, shuningdek ular uchun xotirjam bo'lish, ishga shay turish va diqqatini biror narsaga

qaratish mushkullik tug'dirmaydi. Amaliy harakat qilish kerak bo'lganda, ular ichki hissiyotlari, tug'yonlarini bostira oladilar.

Dissertatsiyaning «**Turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarda emotsional intellekt rivojlanishiga psixologik ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari**» deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqotimizning maqsad va vazivalaridan kelib chiqib 15-35 yoshdagi sog'lom va zaif ko'ruvchi shaxslarning «Emotsional intellektni aniqlash», «Emotsional intellektni baholash», «Shaxsning psixologik farovonligi shkalasi», «Hayotdan qoniqish o'lchovi» (SWLS), «O'z-o'zini baholash» diagnostikasi bo'yicha o'zaro korelyatsion aloqadorlikni aniqlashga harakat qildik. Tadqiqotimiz doirasida jami 428 nafar respondent ishtirok etgan bo'lsa, shundan 214 nafari zaif ko'ruvchilar, qolgan 214 nafari esa sog'lom ko'rish qobiliyatiga ega shaxslardir. Tanlangan respondentlarning bazasi ishonchli ma'lumotlar tahlili uchun yetarlicha asos bo'la oladi. Tadqiqotning keyingi bosqichida turli yoshdagi zaif ko'ruvchilarning emotsional intellektini aniqlash va tadqiqotda tanlangan har bir metodika asosida olingan ma'lumotlarning o'zaro aloqadorlik korrelyatsiyasini tahlil qilindi, natijalar 5-jadvalda berilgan.

5-jadval

Yoshlik davridagi zaif ko'ruvchilarda emotsional intellekt va shaxs psixologik farovonligi shkalasi darajalari bilan o'zaro aloqadorligi (Spirmen mezoni, n=70)

Shkalalar	Ta'sir qiluvchi komponent	kognitiv komponent	konativ komponent	reflektor komponent	qiymat semantik komponent
Boshqa odamlarning his-tuyg'ularini tushunish	,159	,033	,129	,056	,072
Boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish	,143	,101	,241*	-,024	,011
O'z his-tuyg'ularini tushunish	,034	-,001	-,095	,117	-,132
O'z his-tuyg'ularini boshqarish	,226	,184	,171	,091	,198
Ekspressiyani boshqarish	-,038	,023	-,125	,019	-,059
Shaxslararo emotsional intellekt	,227	,133	,244*	,009	,003
Interpersonal emotsional intellekt	,368**	,212	,053	-,088	-,046
Tuyg'ularni tushunish	,263*	,046	,049	-,079	-,006
Tuyg'ularni boshqarish	,243*	,178	,164	-,005	-,054

Izoh: * - $p \leq 0,05$; ** - $p \leq 0,01$

Tadqiqot maqsad va vazifasidan kelib chiqib, yoshlik davrida emotsional intellekt va shaxs psixologik farovonligi darajalari bilan o'zaro aloqadorlik qonuniyatlari mavjudligi aniqlandi. Ta'sir qiluvchi komponent va interpersonal emotsional intellekt shkalalari musbat ($r=0,368$; $p \leq 0,05$) aloqadorlikda ekanligi ma'lum bo'ldi. Demak, yoshlik davrida ta'sir qiluvchi komponentning oshishi, Interpersonal emotsional intellekt rivojlanishiga olib kelar ekan. Ta'sir qiluvchi komponent va tuyg'ularni

tushunish shkalalari musbat ($r=0,263$; $p\leq 0,05$) aloqadorlikda ekanligi ma'lum bo'ldi. Demak, yoshlik davrida ta'sir qiluvchi komponentning oshirilishi, tuyg'ularni tushunishning yaxshilanishiga olib kelar ekan.

Ta'sir qiluvchi komponent va tuyg'ularni boshqarish shkalalari musbat ($r=0,243$; $p\leq 0,05$) aloqadorlikda ekanligi ma'lum bo'ldi. Demak, yoshlik davrida ta'sir qiluvchi komponentning oshirilishi, tuyg'ularni boshqarishning yaxshilanishiga olib kelar ekan. Konativ komponent va boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish shkalalari musbat ($r=0,241$; $p\leq 0,05$) aloqadorlikda ekanligi ma'lum bo'ldi. Demak, yoshlik davrida konativ komponentning oshirilishi, boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarishning yaxshilanishiga olib kelar ekan. Konativ komponent va shaxslararo emotsional intellekt shkalalari musbat ($r=0,244$; $p\leq 0,05$) aloqadorlikda ekanligi ma'lum bo'ldi. Demak, yoshlik davrida konativ komponentning oshirilishi, shaxslararo emotsional intellektning yaxshilanishiga olib kelar ekan.

6-jadval

Ilk yetuklik davridagi zaif ko'ruvchilarda emotsional intellekt va emotsional bilimdonlik darajalari o'zaro aloqadorligi (Spirmen mezoni, $n=78$)

Shkalalar	Emotsional Bilimdonlik	O'z emotsiyalarini boshqarish	O'z - o'zini motivlashdirish	Empatiya	Boshqalarning emotsiyalarini tanish
Boshqa odamlarning his-tuyg'ularini tushunish	,214	,041	,393**	,159	,077
Boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish	,389**	,070	,378**	,129	,165
O'z his-tuyg'ularini tushunish	,141	-,004	,161	,057	,122
O'z his-tuyg'ularini boshqarish	,184	,102	,296**	-,175	,019
Ekspressiyani boshqarish	-,145	-,333**	,004	-,049	,018
Shaxslararo emotsional intellekt	,243*	-,040	,403**	,076	,070
Interpersonal emotsional intellekt	-,044	-,293**	,124	-,135	-,077
Tuyg'ularni tushunish	,027	-,116	,288*	,012	,015
Tuyg'ularni boshqarish	,128	-,169	,318**	-,093	,034

Izoh: ** - $p\leq 0,01$; * - $p\leq 0,05$;


Quyida ilk yetuklik yosh davridagi zaif ko'ruvchilarda emotsional intellekt va emotsional bilimdonlik darajalari bilan o'zaro aloqadorlik qonuniyatlari mavjudligini ko'rishimiz mumkin (6-jadval). Jadvaldan ko'rishimiz mumkin ilk yetuklik yosh davrida emotsional bilimdonlik va boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish shkalalari musbat ($r=0,389$; $p\leq 0,01$) aloqadorlikda ekanligi ma'lum bo'ldi. Demak, ilk yetuklik davrida emotsional bilimdonlik oshishi, boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarishning rivojlanishiga olib kelar ekan. Emotsional bilimdonlik va shaxslararo emotsional

